

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 106-115 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKSTONDA SHAKLLANGAN TO'QIMACHILIK KLASTERLARINING IQTISODIY SALOHIIYATI VA SAMARADORLIGI



Xakimov Ziyodulla Axmadovich,

TDIU, Marketing kafedrasida dotsenti, DSc.

e-mail: bekziyo84@mail.ru

Ахмедова Райхона Жасурбек қизи,

TDIU, Marketing kafedrasida tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik klasterlarining faoliyati samaradorligini tahlil qilishning uslubiy yondashuvi taklif etilgan. Namangan viloyatidagi to'qimachilik klasterlarining tarmoq raqobatbardoshligiga ta'siri, innovatsion loyihalarni amalga oshirish salohiyati, tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri, klaster a'zolari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi hamda klaster a'zolarining geografik yaqinligi, klaster a'zolarini to'g'ri tanlash kabi omillar asosida baholangan. Baholash natijalari asosida to'qimachilik klasterlarini bozor faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: klaster, to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, sanoat klasterlari, samaradorlik, sinergiya

Аннотация. В данной статье предлагается методический подход к анализу эффективности текстильных кластеров. Такие факторы, как влияние текстильных кластеров Наманганской области на конкурентоспособность отрасли, потенциал реализации инновационных проектов, влияние на экономические показатели отрасли, наличие связей и взаимодействия между участниками кластера, географическая близость оценивались члены кластера и правильный выбор членов кластера. По результатам оценки разработаны научное предложение и практические рекомендации по эффективной организации рыночной деятельности текстильных кластеров.

Ключевые слова: кластер, текстильная промышленность, швейное, трикотажное производство, промышленные кластеры, эффективность, синергия.

Abstract. This article proposes a methodological approach to the analysis of the efficiency of textile clusters. Factors such as the influence of textile clusters in Namangan region on the competitiveness of the industry, the potential for implementation of innovative projects, the impact on the economic indicators of the industry, the presence of connections and interactions between cluster members, the geographical proximity of cluster members, and the correct selection of cluster members were evaluated. Based on

the evaluation results, a scientific proposal and practical recommendations were developed for effective organization of market activities of textile clusters.

Key words: cluster, textile, sewing, knitting, industrial clusters, efficiency, synergy

1. Kirish

O'zbekistonning to'qimachilik sanoati qadimdan rivojlangan tarmoq sifatida jahon mamlakatlari orasida o'ziga xos qulay resurs imkoniyatlari va bozor muhiti shakllanganligi bilan ajralib turadi. To'qimachilik sanoati aholining iste'mol tovarlariga talabini qondirish, turmush darajasi, madaniyatini oshirish bilan birga boshqa sanoatni rivojlantirish uchun qo'yishma mahsulotlar yetkazib beruvchi, mamlakatga asosiy valyuta tushumini ta'minlashda ham hal qiluvchi tarmoq sifatida muhim o'ringa ega.

To'qimachilik sanoati ko'p tarmoqli kompleks sifatida ip yigirish, tikuvchilik, trikotaj, ipakchilik sohalarini o'zida qamrab oladi. O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunidan boshlab, aholining asosiy iste'mol tovari hisoblangan to'qimachilik, tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tubdan takomillashtirish, keyinchalik modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, so'ngi yillarda esa innovatsion rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar asosida rivojlanmoqda.

To'qimachilik sanoatining o'ziga xos jihatlari sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozorida doimiy talabning mavjudligi, mehnat sig'iminining yuqoriligi, sanoatning ekologik sofliqi, boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi o'rni yuqoriligi bilan ajralib turadi. To'qimachilik sanoatda boshqa tarmoqlariga qaraganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining keng faoliyatiga imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiyotining real sektorida yuqori ulushga ega bo'lgan va ishlab chiqarish zanjirini to'liq qamrab olgan yagona sanoat sohasi hisoblanadi.

Tarmoq korxonalarida yigirilgan ip, kalava, xom va tayyor matolar, trikotaj va tikuvchilik korxonalarida — kiyim-kechak va maishiy buyumlar ishlab chiqarilmoqda. O'zbekiston uchun iqtisodiyotning mazkur sohasini rivojlantirishning muhimligi, birinchi navbatda, mahalliy xom ashyo (paxta, shoyi, jun) bazasining mavjudligi, shuningdek, to'qimachilik sanoatining yuqori mehnat sig'imligi bilan bog'liq. Bu esa, bandlik va aholining turmush darajasini oshirish kabi muammolar yechimini topish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Jahon bozorida tabiiy, sifatli mahsulotlarga bo'lgan talab oshib borayotgan sharoitda mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini izchil nazorat qilib borish ularni eksport qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda to'qimachilik klasterlari faoliyatini doimiy baholab borish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb tadqiqot yo'nalishidir.

2. Adabiyotlar sharhi

Mamlakat darajasida klasterlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda klasterlarni yaratishda ko'plab savollar tug'iladi, ulardan biri yaratilayotgan klasterning samaradorligini baholashdir.

Klaster siyosatini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlarda, jumladan M. Porterning nazariyasiga asoslanilganda klasterlarning rivojlanishi, tarmoqda shakllangan raqobat muhitiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. To'qimachilik mahsulotlari bozori xususiyatlaridan kelib chiqqanda, O'zbekistonda mazkur tarmoqda yuqori raqobat muhiti

shakllanganligini kuzatish mumkin.

Tarmoq klasterlarini samaradorligini baholashga bo'lgan yondashuvlar ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan va bir qator yondashuvlar shakllangan. Asosiy tadqiqotlar esa mintaqada sanoat klasterlarini tashkil etish va mintaqaviy o'sish asosiy o'rinni egallaydi. Ko'plab tadqiqotlarda [1][2][3] klaster a'zolarining o'zaro integratsiyalashuvi, mahalliyashtirish darajasi, geografik yaqinligi, iqtisodiy holati, konsentratsiyalashuvi, yiriklashuv darajalariga ko'ra[4] baholangan. Baholashda statistik tahlil, integral baholash, ekspert baholash, SWOT va PEST tahlil usullari va anketalash kabilardan keng foydalanilgan. Yuqoridagi usullarda klasterlar samaradorligini baholash bo'yicha miqdoriy usullarga tayanilgan bo'lib, korxonalarining klasterga birlashtiruvchi motivatsiya omillari yetarlicha e'tiborga olinmagan.¹

Masalan, E. Fezer tomonidan tarmoqda bandlarning ulushini yuqoriligi asosiy ko'rsatkich sifatida tanlangan va klasterlar samaradorligini baholashda asosan qo'shilgan qiymat zanjirini shakllanganligiga e'tibor qaratgan[5]. L. Bertinellining fikricha tarmoq korxonalarining geografik aglomeratsiyasiga[3] ko'ra baholagan. Shuningdek, amaliyotda klasterlash imkoniyatlarini korxonalarining raqobat muhitiga moslashuvchanligini belgilovchi omillarga asoslanish usullari keng qo'llanilgan.[6][9][10][11]

M. Porterning kengaytirilgan raqobat konsepsiyasiga ko'ra, klasterlarni rivojlanishi uchun asosida determinantlar quyidagilar[7]:

Ishlab chiqarish omillari;

Talab holati;

Davlat xizmatlari va infratuzilmadan foydalanish holati;

Geografik yaqinlik va vertikal integratsiya holati;

Gorizontaal integratsiya va raqobatda hamkorlik;

O'zaro hamkorlik munosabatlari;[8]

3. Metodologiya

Ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan holatlarni inobatga olgan holda, klasterlar faoliyati samaradorligini baholash quyidagi xususiyatlarga ko'ra amalga oshirish lozim:

1. Klasterlarning tarmoq raqobatbardoshligiga ta'siri;

2. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish;

3. Tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi;

4. Klaster a'zolari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi;

5. Klaster a'zolarining geografik yaqinligi, klaster a'zolarini to'g'ri tanlash va ularning soni.

Mazkur xususiyatlar bo'yicha tanlangan mezonlar 5 balli tizimda baholanadi. Baholashda "0" ball – tarmoqni rivojlanishiga klasterlarning ta'siriga ijobiy yoki salbiyligiga ko'ra baholanadi; "2,5" ball – esa ahamiyatsiz ta'sirni ko'rsatadi; "5" ball esa sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur baholash bo'yicha ekspert guruhlarini tuziladi. Ushbu guruhga yuqori malakali kadrlar jalb etiladi.²

Ekspertlar guruhi har bir mezon uchun salmoq koeffitsiyentlarini (K_i) hamda ta'sir qiluvchi omillarni (k_i) muhimligi bo'yicha belgilab berish taklif etiladi. Klasterlarning

¹ <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42776>

² Проблемы оценки управляемости кластерных систем. <http://library.ru/item.asp?id=26485471>

faoliyati samaradorligini (N_j) aniqlash uchun oʻrnatilgan mezonlar sonidan kelib chiqib, xar bir xususiyat boʻyicha salmoq koeffitsiyentlari aniqlanadi:

$$N_j = \sum k_i * K_i \quad (1.1)$$

bunda

k_i – tanlangan mezonlar;

K_i – tanlangan mezonlar boʻyicha salmoq koeffitsiyentlar;

Tarmoq klasterini yaratish samaradorligi koʻrsatkichi (N) barcha xususiyatlar boʻyicha yakuniy baholarning oʻrtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlanadi. Yuqoridagi ballar shkalasidan kelib chiqqan holda klasterlarni shakllantirish boʻyicha quyidagi mezonlar tanlanadi:³

agar yakuniy ball 2,5 balldan 5 balgacha boʻlsa klasterini yaratish samarali boʻladi;

agar yakuniy ball 1,5 ball 2,5 balgacha boʻlsa klasterini yaratish mumkin, biroq ular ishonchsiz;

agar yakuniy ball 1,5 ballgacha boʻlsa klasterini yaratish imkonsiz;

Sanoat klasterini tashkil etadi va shunga mos ravishda tarmoq klasterining samaradorligini belgilaydi.⁴

Klasterlar faoliyati samaradorligini baholash uchun taklif qilingan metrikalar 1-jadvalda ifodalanadi.

4. Tahlil va natijalar

Namangan viloyati toʻqimachilik klasterlar shakllangan respublikaning asosiy toʻqimachilik, tikuv-trikotaj sanoatiga ixtisoslashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Hududda 2022-yil yakuniga koʻra jami 7 ta toʻqimachilik klasterlari faoliyat yuritgan (1-rasm). Klasterlar tomonidan 63 ming ga.yer maydonlarida paxta xom ashyo tayyorlangan. 2018-2022-yillar davomida ular tomonidan 227,6 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilingan. Klasterlar va ularning tarkibidagi korxonalarda 2022-yil yakuniy boʻyicha jami 26 mingdan ziyod aholi ish bilan band.

³ <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=31301>


⁴ проблемы оценки управляемости кластерных систем. <http://elibrary.ru/item.asp?id=26485471>

To'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi

Omillar (k_i)	Salmoq koef. (K_i)	Ta'sir etuvchi omillar	Baholash bo'yicha tavsiya
1. Klasterlarning tarmoq raqobatbardoshligiga ta'siri (N_1)			
k_1 — klasterlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish	0,3	-ishlab chiqarish quvvatlarining o'rtacha yuklanish koeffitsiyenti	Hududdagi jami to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari va klasterlarning ishlab chiqarish quvvatlari nisbati asosida aniqlanadi;
k_2 — klaster korxonalarining mintaqa sanoatiga ta'siri	0,3	- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sishi.	Klasterlarning viloyatdagi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishidagi ulushining o'zgarishi asosida aniqlanadi
k_3 — klaster korxonalarining mintaqa eksport salohiyatiga ta'siri	0,3	- eksportining rivojlanishi	Klasterlarning viloyatdagi jami sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushining o'zgarishi asosida aniqlanadi
k_4 — klaster korxonalarining imiji	0,1	-klaster korxonalarining tadbirkorlik faoliyati imiji; -klaster korxonalari faoliyat davri tajribasi	Ekspert baholash asosida aniqlanadi
2. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish (N_2)			
k_5 — klasterlarning innovatsion faollik darajasi	0,3	-klaster tashkil etishdan keyingi tarmoqdagi innovatsiyalar sonining ko'payishi;	Jami sanoat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalarda klasterlar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar salmog'i;
k_6 — klasterlarning yangi loyihalarni amalga oshirish darajasi	0,3	-yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi	Sanoatda amalga oshirilgan yangi loyihalar sonida klasterlar ulushi;
k_7 — innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish	0,3	-ishlab chiqarilgan mahsulotda innovatsion mahsulotlarning ulushi	Hududiy sanoatda yaratilgan jami innovatsiyalarda klasterlarning ulushi
k_8 — zamonaviy	0,1	- klasterlarning CRM va	Joriy etilgan jami CRM va ERP

Omilar (k_i)	Salmoq koef. (K_i)	Ta'sir etuvchi omillar	Baholash bo'yicha tavsiya
axborot texnologiyalaridan foydalanish		ERP dasturiy tizimlaridan foydalanish darajasi	dasturiy tizimlarida klasterlarning hissasini aniqlash asosida ekspert baholanadi
3. Tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi (N_3)			
k_9 – jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	0,4	-jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda klaster korxonalarining ulushi va o'sishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida klasterlarning ulushini aniqlash asosida hisoblanadi
k_{10} — sanoatda band bo'lganlar soni	0,3	-Jami sanoatda bandlarida klaster korxonalarida band bo'lganlar ulushi;	Jami sanoatda band bo'lganlar sonida klasterlarda band bo'lganlar nisbati asosida aniqlanadi
k_{11} — asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar hajmi	0,3	-klaster korxonalarining asosiy fondlarini yangilanishi; -yangi qurilishlar orqali mintaqaga investitsiyalar hajmini oshirish;	Korxonalarining asosiy fondlarni ko'paytirishga yo'naltirilgan o'z mablag'lari hajmining o'zgarishlari asosida hisoblanadi; Jami mintaqada sanoatda investitsiyalarda klasterlarning ulishi aniqlanadi
4. Klaster a'zolari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi (N_4)			
k_{12} — hamkorlik darajasi	0,4	-klaster korxonalarining hamkorlikning zarur darajasiga erishish qobiliyati;	Har bir ishtirokchining hamkorligi ekspertlar tomonidan turli mezonlar bo'yicha baholanadi. Olingan qiymat o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, klaster a'zolari doirasida hamkorlik rivojlangan deb taxmin qilinadi
k_{13} — klaster rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish	0,3	-zarur infratuzilmani yaratish imkoniyati	Ekspert baholash
k_{14} – yangicha boshqaruv usullarini joriy etish	0,3	-klaster rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasi	
5. Klaster a'zolarining geografik yaqinligi, klaster a'zolarini to'g'ri tanlash va ularning soni (N_5)			
k_{15} — klaster a'zolarining geografik yaqinligi	0,5	-klaster a'zolarining hududiy joylashuvi	Klaster a'zolarining yaqinligi geografik konsentratsiyalashuv asosida aniqlanadi
k_{16} — klaster a'zolarini va ularning sonini to'g'ri tanlash	0,5	-ichki bozorda maksimal ulushga ega bo'lgan korxonalarining minimal sonini tanlash	Har bir korxonaning ishlab chiqarish hajmi va korxonadagi xodimlar soni asosida Poreto tamoyiliga ko'ra aniqlanadi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan



1-rasm. Namangan viloyatida to‘qimachilik klasterlarini joylashuvi⁵

Namangan viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 2022-yilda jami 63406 ga paxta maydonlarida 222,4 ming tonna paxta xom-ashyosi yig‘ib olinib, klasterlarning ichki imkoniyatlari doirasida 74,3 ming tonna tola ishlab chiqarilgan. Tolaning 100 foizi klasterlar tomonidan qayta ishlangan va qolgan quvvatlar fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlashga yo‘naltirilgan. To‘qimachilik klasterlari tomonidan 2022-yilda paxta tolasidan keyingi jarayon hisoblangan ip kalavani qayta ishlash darajasi 41 foizni tashkil etgan va klaster bo‘lmagan korxonalarni hissasi 59 foizni tashkil etgan. Klasterlarda ip kalava yigiruv bo‘yicha o‘zi tomonidan yetishtirilgan tolasini to‘liq qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan quvvatlar mavjud (2-jadval).

Shuningdek, 56,0 mln. p.m gazlama, 8000 p.m trikotaj mato va 34950 ming dona tayyor tikuv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Klasterlar 2022-yilda to‘liq quvvatlarda ishlagan va 111485 ming AQSH dollari miqdorda mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan.

⁵ Namangan viloyati hokimligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

2-jadval

Namangan viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratilishi va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha, 2022-yil uchun

№	Paxta-to'qimachilik klasteri nomi	Paxta maydoni (ga)	2022 y yetishtirilgan hosil (tn)	Hosildorlik (s/ga)	Tola ishlab chiqarish (tn)	Tolani qayta ishlash darajasi (%)	Ip-kalavani qayta ishlash darajasi (%)	Mavjud quvvatlar				Eksport (ming. AQSH doll.) 2022-yil amalda
								Ip-kalava (tn)	Gazlama mato (ming.kv.m)	Trikotaj mato (tn)	Tayyor mahsulot (ming.dona)	
	Paxta-to'qimachilik klasterlari	63406	222434	34	74293	119	41	75250	56000	8000	34950	111485
1	Textile Finance Namangan	9436	29752	32	9937	213	34	18000		6000	13000	36419
2	Namangan To'qimachi Clus.	9340	34367	36	11479	176	35	17200	30000		2000	906
3	Art Soft Tex Cluster	23218	87357	38	29177	68	36	16850	17500		5000	24000
4	Namangan Paxta Tex	3955	10377	26	3466	75	94	2200		2000	150	4807
5	Toshbuloq Tex	5550	20779	37	6940	102		6000				15894
6	Uchkorgon Textile	5869	17278	29	5771	306	23	15000	8500		4000	19378
7	Iftixor Kiyim Sanoat	6038	22524	37	7523						10800	10082

Manba: O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi ma'lumoti asosida tayyorlangan

Eng yirik paxta to'qimachilik klasterlaridan biri hisoblangan "Art Soft Holding" MCHJ paxta xomashyosini tayyor mahsulotga aylantirish bo'yicha to'liq texnologik siklga ega bo'lgan, shu jumladan, xomashyo va tayyor junli mato ishlab chiqaruvchi yirik klasterlardan biri hisoblanadi.

"Art Soft Holding" MCHJ 2018-yil 10-oktyabrdan boshlab to'qimachilik klasteri sifatida faoliyat boshlagan. Korxonada momiq sochiqlar, trikotaj va boshqa ko'plab turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Korxonada O'zbekiston to'qimachilik sanoatida o'z nufuziga va imijga ega bo'lgan korxonalaridan biridir.

Baholash usulidan foydalanib, Namangan viloyati to'qimachilik sanoatida shakllantirilgan paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyat samaradorligi baholanadi. Klasterlar faoliyati samaradorligini aniqlash bo'yicha taklif etilgan usul bo'yicha 2021-2022-yillardagi faoliyatini tahlil qilish uchun to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida samaradorlik hisoblanadi. Klasterlar samaradorligini tahlili (1.1) formula asosida hisoblash uchun 3.11-jadval ma'lumotlari tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlari asosida klasterlar faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi koeffitsiyentlar quyidagicha:

$$N_{k2021} = \sum k_i * K_i = 1,74$$

$$N_{k2022} = \sum k_i * K_i = 0,84$$

Baholash natijalariga ko'ra, to'qimachilik tarmog'ida klasterini yaratish samaradorligi ko'rsatkichi (N) barcha xususiyatlar bo'yicha yakuniy baholari 2021-yilda 1,74 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 0,84 koeffitsiyentni tashkil etdi. Yuqoridagi ballar shkalasidan kelib chiqqan holda agar

yakuniy ball 1,5 ballgacha bo'lsa klasterlarni yaratish imkonsiz deb hisoblanadi.

3-jadval

To'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari

Asosiy ko'rsatkichlar	Salmoq koef.	2021-yil	2022-yil
1. Klasterlarning tarmoq raqobatbardoshligiga ta'siri (N1)			
K1 – klasterlarda ishlab chiqarish quvvatlarini yuklanishi (jami quvvatlarga nisbatan umumiy o'rtacha)	0,3	0,438	0,439
K2- klaster korxonalarining mintaqa sanoatiga ta'siri	0,3	0,069	0,108
K3 – klaster korxonalarining mintaqa eksport salohiyatiga ta'siri	0,3	0,702	0,667
K4- klaster korxonalarining imiji (ekspert baholash natijalari). 10 balli shkala asosida ekspertlar tomonidan baholanadi va maksimal bahoga nisbatan qo'llaniladi. Jami ekspertlar soni 10 nafar.	0,1	0,43	0,67
2. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish (N2)			
K5– klasterlarning innovatsion faollik darajasi	0,3	0,214	0,281
K6– klasterlarning yangi loyihalarni amalga oshirish darajasi, mlrd.so'm	0,3	0,606	0,295
K7– innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish	0,3	0,044	0,074
K8– zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	0,1	0,313	0,273
3. Tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi (N3)			
K9– jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	0,4	0,371	0,374
K10- bandlik salohiyati	0,3	0,191	0,203
K11 – asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar hajmi	0,3	0,078	0,044
4. Klaster a'zolari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi (N4)			
K12 – hamkorlik darajasi	0,4	0,620	0,655
K13 – klasterlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish	0,3	0,27	0,38
K14- boshqaruvning yangi darajasiga kirish	0,3	0,74	0,83
5. Klaster a'zolarining geografik yaqinligi, klaster a'zolarini to'g'ri tanlash va ularning soni (N5)			
K15 – klaster a'zolarining geografik konsentratsiyasi (Herfindahl – Hirschman index asosida hisoblanadi)	0,5	0,209	0,159
K16 – klaster a'zolarini va ularning sonini to'g'ri tanlash	0,5	0,368	0,388
N_k		1,17	0,84

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

Хулоса

Namangan viloyatida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va xom-ashyodan to'liq mahsulotgacha bo'lgan bo'g'inlarni o'zida qamrab olishga yo'naltirilgan faoliyat bo'yicha tanlangan korxonalar fikrimizcha, viloyatda to'qimachilik klasterlarini yaratish uchun yetarlicha sharoit yaratmaydi va tanlangan korxonalar bilan to'qimachilik klasterlarini yaratib bo'lmaydi. Shunga ko'ra viloyatda klasterlarni yaratishga qaratilgan strategiyani qayta ko'rib chiqish va to'qimachilik korxonalarining bozor mexanizmlari asosida o'zaro integratsiyasini asosida sinergiya samarasiga erishishga yo'naltirilgan strategik maqsadlar belgilanishi lozim.

O'zbekiston respublikasida to'qimachilik sanoati eng rivojlangan hududlardan biri va ularda shakllantirilgan to'qimachilik klasterlari faoliyati asosida tahlillarni amalga oshiriladi. Boshqa viloyatlar uchun ham taklif etilgan uslubiyot asosida to'qimachilik klasterlarni faoliyatini baholash va tegishli qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq.

Klasterlar korxonalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, bilimlar va qo'shilgan qiymat yaratishning asosiy yondashuvidir. Sanoat klasterlarini nafaqat iqtisodiy aglomeratsiya, Sanoat 4.0.da innovatsiya yaratuvchi drayverlar sifatida qaraladi, balki, milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga hissa qo'shib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi va aholini turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

To'qimachilik klasterlari global qiymat zanjirini (GVCs) yaratishga qaratilgan faoliyatidir. Global qiymat zanjiri korxonalarining yakuniy iste'molchilarga mahsulotni yetib borgunicha bo'lgan jarayonlarda yaratilgan qiymatning xalqaro taqsimlanishi hisoblanadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatida shakllangan klasterlar xalqaro

brendlar bilan samarali kommunikatsiya va integratsiyasi orqali global qiymat zanjiridagi ishtirokini ta'minlashga asos yaratadi. Shuningdek, rivojlanayotgan bozorlarda mahsulot va jarayonlar standartlariga yuqori moslashuvchanlik global ta'minot zanjirlarida ishtirok etishini osonlashtiradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Батталова А. Оценка потенциала кластеризации отрасли. Интернет-журнал "НАУКОВЕДЕНИЕ" Выпуск 6, ноябрь – декабрь 2013. <http://publ.naukovedenie.ru>;
2. Т.Ю. Ковалева. Алгоритм дентификации и оценки кластеров в экономике региона. Вестник пермского университета. 2011 г. Вып. 4(11). Исследование поддержано грантом РГНФ № 11 – 12-59011а/У.;
3. Stejskal J. Comparison of often applied methods for industrial cluster identification. URL: <http://www.wseas.us/e-library/conferences/2010/Tenerife/DEEE/DEEE-46.pdf> (дата обращения: 13.06.2011)..
4. Bertinelli L., Decrop J. Geographical agglomeration: the case of Belgian manufacturing industry // Federal planning bureau. Economic analyses and forecasts. 2002. November. 45 p.
5. Feser E., Renski H., Koo J. 12 Regional cluster analysis with interindustry benchmarks //Targeting regional economic development. – 2009. – С. 213.
6. Papadopoulou E. Applying Shift-Share analysis (SSA) on LEADER. Initiative local action groups in Greece. URL: http://www.rudieurope.net/uploads/media/Case study Greece 2_01.pdf. 2011.
7. Grant R. M. Porter's 'competitive advantage of nations': an assessment //Strategic management journal. – 1991. – Т. 12. – №. 7. – С. 535-548.
8. Ergashodjaeva S. J. et al. Evaluation of textile and clothing industry clustering capabilities in Uzbekistan: based on model of M. Porter //Int J Econ Manag Sci. – 2018. – Т. 7. – №. 439. – С. 2.
9. ХАКИМОВ З. Кластерларнинг "Саноат 4.0" га трансформацияси //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 2. – С. 244-250.
10. Djasurovna E. S., Ahmadovich H. Z., Nishonovich S. A. The ways of improving competitiveness of textile industry enterprises based on marketing strategies //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 7. – С. 751-762.

Akhmadovich H. Z. The ways improving competitiveness of light industry enterprises based on marketing strategies" monograph. – 2018.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

